XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 7 - yanvar VI-80-1-10-149-K/23 Bekobod shahar hokimligi

Bekobod shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 2022-yil 22-dekabrda va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida 27-dekabrda qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yil budjet parametrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-99-moddasi, 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli “Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30 dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Bekobod shahar mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 71 600 772,0 ming so‘m va xarajatlari 140 038 821,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga solinadigan budjetlararo transfertlar miqdori 68 438 049,0 ming so‘m

miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi *1-ilovaga* muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari *2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi *3-ilovaga* muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari *4-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan shahar mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Bekobod shahri bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida 1 321 121,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar mahalliy budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

8. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 756 754,0 ming miqdorida belgilansin.

9. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari *5-ilovaga* hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari *6-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda xususan mahalliy budjet

xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

11. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6,0 mld.so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Mirzaqulov), Moliya bo‘limi (Sh.Baykuziyev), Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nishanov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

shahar mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nishanov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Majburiy ijro byurosi (U.Saidov) shahar soliq inspeksiyasi (Sh.Nishanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash boshqarmasi (A.Usmonqulov), shahar hokimligi (B.Mirzaqulov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari va mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya xulosasi asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

17. Shaharlar hokimligi:

Shahar budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda mahallalardagi hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borsin.

18. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Mirzaqulov) xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati tegishli bo‘lim va tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nishanov) Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

20. Shahar hokimligi matbuot xizmati:

Mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.bekobod.toshvil.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

21. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Axmadaliyev va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Mirzaqulov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **U.Abdunazarov**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-80-1-10-149-K/23-son qaroriga
1-ilova

Bekobod shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/r	**Daromad turlari**	**Jami**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	825 131
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	2 693 654
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	20 228 121
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 520 000
5	Aksiz solig‘i jami	2 979 349
	shu jumladan:	
	-yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdan aksiz solig‘i	2 979 349
6	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	1 388 846
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 538 555
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 194 399
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 436 879
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	13 200 573
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	192 131
JAMI		**55 197 638**
Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad		**16 403 134**
12	Alkogol mahsulotlari shu jumladan pivo	6 635 908
13	Mobil aloqa xizmati	2 846 419
14	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	6 920 807
Jami daromad		**71 600 772**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-80-1-10-149-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori**
	Xarajatlar - jami	**140 038 821**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**102 548 060**
1.1	Maorif	18 219 333
	- maktabgacha ta’lim	5 646 723
	- umumiy ta’lim	12 572 610
1.2	Sog‘liqni saqlash	67 506 207
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	-
1.3	Madaniyat va sport ommaviy axborot vositalari	7 329 224
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 405 242
	- sport	5 923 982
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	9 302 366
1.6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	36 800
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	154 130
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**12 475 654**
2.1	Obodonlashtirish	11 199 479
2.2	Veterinariya qo‘mitasi	412 408
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	863 767
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**14 713 759**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	14 713 759
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**2 374 622**
5	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 321 121**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**6 605 605**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-80-1-10-149-K/23-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

(ming so‘m)

T/r	Daromadlar*	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	Xarajatlar
1	71 600 772	68 438 049	140 038 821

**Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo, alkogol mahsulotlari va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan aksiz solig‘i daromadlari bilan birgalikda.*

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-80-1-10-149-K/23-son qaroriga
4-ilova

2023-yil uchun shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

T/r	Soliq va yig‘imlar	Ajratma me’yori (%)
1	Jismoniy shaxslardan olinadi-gan daromad solig‘i	10
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	5
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	20
4	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20
5	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	20
6	Aylanmadan olinadigan soliq	30
7	Suv resurslaridan foydalangan-lik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	100

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-80-1-10-149-K/23-son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Bekobod shahar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha 1 kv.m uchun	
		Koeffi-sient (0,5 dan 2 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffi-sient (0,5 dan 2 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (so‘mda)
1	A.Navoiy MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
2	Al-Xorazmiy MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
3	Andijon MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
4	Birdamlik MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
5	Bobur MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
6	Bogishamol MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
7	Bulokariq MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
8	Bunyodkor MFY	0.7	27 720.0	0.7	249.5
9	Dustlik MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
10	Yoshlik MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
11	Jomiy MFY	0.7	27 720.0	0.7	249.5
12	Istiklol MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
13	K.Farmonov MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
14	Madaniyat MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
15	Ma’rifat MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
16	Metallurg MFY	1.1	43 560.0	1.1	392.0
17	Mukumiy MFY	1.1	43 560.0	1.1	392.0
18	Mustakillik MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
19	Navruz MFY	0.9	35 640.0	0.9	320.8
20	Nurli yo‘l MFY	1.2	47 520.0	1.2	427.7

21	Obod turmush MFY	1.1	43 560.0	1.1	392.0
22	Paxtakor MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
23	Sayxun MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
24	Samarkand MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
25	Sirdaryo MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
26	Tarakkiyot MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
27	Tinchlik MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
28	Turkiston MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
29	O‘zbekiston MFY	1.1	43 560.0	1.1	392.0
30	Fargona MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
31	Farxod MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
32	X.Olimjon MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
33	Sementchi MFY	0.9	35 640.0	0.9	320.8
34	Shirin MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4
35	Yangi Xayot MFY	1.0	39 600.0	1.0	356.4

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-80-1-10-149-K/23-son qaroriga
6-ilova

2023-yil uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

(so‘m)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffisient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat
1	Bekobod shahri	1.00	1 000 000.0